

“O‘zbektelekom” AKning
2024-yil “27” -dekabrdagi
438-son buyrug‘iga 4-ilova

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining
manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik
qilish siyosati**

Toshkent

Mundarija

	“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati.....	1
1	Umumiy qoidalar	3
2	Qo‘llash sohasi.....	3
3	Atamalar va ta’riflar	3
4	Manfaatdor tomonlarni aniqlash	4
5	Kompaniyaning MT bilan o‘zaro hamkorlik qilish bo‘yicha maqsadlari va vazifalari.....	5
6	Kompaniya amal qiladigan tamoyillar	5
7	Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik asoslari	6
8	Shikoyat va takliflarni berish mexanizmi hamda ularni ko‘rib chiqish tartibi.....	6
9	Monitoring va hisobot.....	7
10	Javobgarlik	7

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati

1 Umumiy qoidalar

1.1 “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya)ning manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat) O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga, Kompaniyaning Ustaviga, Korporativ boshqaruv kodeksiga, Kompaniya xodimlari uchun odob-axloq qoidalari hamda Kompaniyaning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2 Siyosat Kompaniyaning manfaatdor tomonlar (keyingi o‘rinlarda – MT) bilan o‘zaro hamkorligini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

1.3 Kompaniya inson huquqlarini hurmat qilish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, normativ-huquqiy hujjatlarga, sohaviy norma va qoidalarga, shartnomaviy majburiyatlarga rioya qilish asosida barcha MT bilan barqaror hamkorlik munosabatlariga intiladi.

1.4 MTning xavotirlanishi va kutilmalarini tushunish, MT manfaatlari muvozanati asosida ularni qondirishga qaratilgan choralarni ko‘rish Kompaniyaning biznes samaradorligini va barqarorligini oshirish bo‘yicha muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

1.5 Kompaniya ushbu Siyosatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro standartlardagi o‘zgarishlarga muvofiq doimiy ravishda yangilab boradi.

1.6 Ushbu Siyosatni ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlikka taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, tan olingan xalqaro standartlar inobatga olingan.

2 Qo‘llash sohasi

2.1 Siyosat Kompaniyaning barcha filiallari va tarkibiy tuzilmalariga, Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan barcha ishlab chiqarish jarayonlari va boshqa faoliyat turlariga tatbiq etiladi.

2.2 Mazkur Siyosat talablari Kompaniya xodimlari tomonidan bajarilishi majburiydir.

2.3 Mazkur Siyosatning qoidalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda Kompaniya faoliyatini rejalashtirishda Kompaniya rahbariyati tomonidan hisobga olinadi.

3 Atamalar va ta’riflar

3.1 Ushbu Siyosatda quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalanilgan:

Manfaatdor tomonlar: manfaatlari Kompaniyaning faoliyati, shu jumladan, uning investitsiya loyihalari amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar, turli guruhlar va uyushmalar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek, Kompaniyaga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tomonlar.

Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik: manfaatdor tomonlarning fikrlari inobatga olinishini va ular oldidagi hisobdorlikni ta’minlaydigan mexanizmlar hamda tartib-taomillar tizimi..

Korporativ ijtimoiy javobgarlik (KIJ) - bu Kompaniyaning o‘z qarorlari va faoliyatining shaffof va axloqiy xatti-harakatlari orqali jamiyat va atrof-muhitga ta’siri uchun javobgarligidir, u: barqaror rivojlanishga, shu jumladan jamiyat salomatligi va farovonligiga yordam beradi; manfaatdor tomonlarning kutilmalarini hisobga oladi; milliy qonunchilikka va xalqaro xulq-atvor me’yorlariga mos keladi; Kompaniya faoliyatiga integratsiyalashgan va uning o‘zaro munosabatlarida qo‘llaniladi.

Yetkazib beruvchi: jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, tovarlar/xizmatlarni yetkazib beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar guruhlar (shu jumladan pudratchi tashkilotlar).

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati

Aholining zaif toifalari: bu boshqa guruhlariga yoki jamiyatning qolgan qismiga nisbatan diskriminatsiya qilinishi va huquqlari buzilishi, iqtisodiy inqirozlarning salbiy ta’siri va xavfi yuqori bo‘lgan biron-bir guruh yoki jamiyatning bir qismi.

Barqaror rivojlanish: faoliyatning tabiiy resurslardan foydalanish, investitsiyalarni yo‘naltirish, ilmiy-texnik rivojlanishni yo‘naltirish va ijtimoiy mas’uliyat bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan va inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun hozirgi va kelajakdagi salohiyatni mustahkamlaydigan jihatlari majmuyi va muvozanati.

4 Manfaatdor tomonlarni aniqlash

4.1 Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va ularni Kompaniyaning joriy faoliyatiga va uning strategik rivojlanishiga ta’sirining ahamiyatini baholash amaliyotiga asoslanib, Kompaniyada quyidagi guruhlar va ularning manfaatlari ajratilgan:

- **davlat organlari:** O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etishdan, mamlakatni va mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning ustuvor strategiyalarini amalga oshirishda Kompaniyaning tegishli ishtirok etishidan manfaatdorlar;

- **aksiyadorlar va kreditorlar:** Kompaniya aksiyadorlik qiymatining uzoq muddatli o‘shishidan bevosita manfaatdorlar;

- **xodimlar va Kasaba uyushmasi:** mehnat qonunchiligi va mehnat shartnomasi normalarining to‘liq bajarilishini, xavfsiz va maqbul mehnat sharoitlari yaratilishi va qo‘llab-quvvatlanishini, ish haqi va ijtimoiy kafolatlarning raqobatbardosh darajasiga ega ish o‘rinlari taqdim etilishini kutadilar;

- **mijozlar:** ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati va uzluksizligi, xizmat ko‘rsatish standartlarini takomillashtirish va innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdor tomon;

- **hamkorlar va yetkazib beruvchilar:** o‘zaro manfaatli hamkorlik, shaffoflik, qonun hujjatlari va “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi xodimlari uchun odob axloq qoidalari bilan mustahkamlangan axloqiy me‘yorlarga rioya qilish tamoyillariga asoslangan o‘zaro hamkorlikdan manfaatdor;

- **raqobatchilar:** bozorda o‘z ulushini oshirishdan manfaatdorlar;

- **xalqaro tashkilotlar:** xalqaro hamkorlikdan manfaatdorlikni kutadi;

- **moliya institutlari (banklar):** bo‘sh pul mablag‘larini joylashtirish va maxsus hisob raqamlariga xizmat ko‘rsatishdan manfaatdorlikni kutadi;

- **aholi va mahalliy hamjamiyat vakillari:** ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati, xizmatlar uchun jozibador tariflar, ish bilan ta‘minlanish, xayriya yordamini olish, sog‘liqni saqlash xavfsizligi, inson huquqlariga rioya qilish va Kompaniya o‘z operatsion faoliyatini olib borayotgan hududlarda yoki faoliyatini kengaytirayotganida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda xavfsizlikni ta‘minlashdan manfaatdorlar;

- **jamoat tashkilotlari va OAV:** mahalliy hamjamiyatlarning umidlari va tashvishlari to‘g‘risida jamoatchilikni yetarli darajada va o‘z vaqtida xabardor qilish, shaffoflikni oshirish, jamoat tashkilotlarining mustaqilligi va erkinligini ta‘minlash hamda ularning ekspert salohiyatini oshirishdan manfaatdor.

5 Kompaniyaning MT bilan o‘zaro hamkorlik qilish bo‘yicha maqsadlari va vazifalari

5.1 Barqarorlik va mas’uliyat MT manfaatlari muvozanatini ta’minlab, Kompaniyaning iqtisodiy barqarorligi asosini tashkil etadi.

5.2 MT bilan o‘zaro aloqalar - doimiy ravishda takomillashtirish jarayonida bo‘lgan va MTning fikrlari va manfaatlarini doimiy hisobga olish orqali barqarorlikka erishishni ta’minlaydigan KIJning eng muhim vositalaridan biridir.

5.3 Kompaniyaning MT bilan o‘zaro hamkorligining asosiy maqsadi Kompaniyani strategik rivojlantirish yo‘nalishlarini va uning faoliyatini va KIJ amaliyotini takomillashtirish yo‘llarini kelishilgan holda tanlashdan iborat. Ushbu ishning maqsadi - barcha manfaatdor tomonlarga foyda keltiradigan barqaror rivojlanish darajasiga erishishdir.

5.4 Quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali Kompaniyaning me’yoriy hujjatlarida qayd etilgan KIJ amaliyotini takomillashtirish MT bilan o‘zaro hamkorlikning vazifasi hisoblanadi:

- MTning ehtiyojlari, xohish-istaklari va fikrlarini, ular bilan hamkorlik qilish xatarlari va imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilish;
- MTning eng muhim masalalari va muammolarini shakllantirish va hal etish;
- yangi ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishish, MTda mavjud bo‘lgan, qo‘llanilishi sinergetik samara beradigan bilimlar va boshqa resurslarga tayangan holda rivojlanish va o‘zaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilash;
- o‘z faoliyatini MTni barqaror rivojlantirish ehtiyojlari va jamoatchilikning talablari bilan muvofiqlashtirish;
- Kompaniya faoliyatini ichki va tashqi MT tomonidan adekvat baholash imkonini beruvchi faoliyat natijadorligi ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash;
- mavjud MT xaritasini hisobga olgan holda ichki va tashqi MTlarning yangi guruhlarini o‘z vaqtida aniqlash va saralash.

6 Kompaniya amal qiladigan tamoyillar

6.1 MT bilan o‘zaro hamkorlikda Kompaniya quyidagi asosiy tamoyillarga amal qiladi: Kompaniyaning jamiyat, iqtisodiyot va atrof-muhitga ta’siri, uning qarorlari va faoliyati to‘g‘risida **jamoatchilikni izchil ravishda xabardor qilish** Kompaniyaning MT bilan o‘zaro hamkorlik qilish bo‘yicha o‘z yondashuvini amalga oshirishda qo‘llaydigan asosiy tamoyil hisoblanadi. Ushbu tamoyil Kompaniya o‘zining salbiy ta’sirini minimallashtirish uchun zarur choralarni ko‘rishi, MTning xohish-istak va pozitsiyalarini hisobga olishi va ularga javob berish majburiyatini zimmasiga olishini nazarda tutadi.

Ochiqlik: MT bilan o‘zaro hamkorlik jarayonida Kompaniya o‘z faoliyati to‘g‘risida to‘liq hajmdagi, ishonchli ma’lumotlar taqdim etilishini turli shakl va usullardan, shuningdek, eng samarali kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda amalga oshiradi. Kompaniyaning barcha MT uchun ochiqligini ta’minlash majburiyati MT va barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro standartlarda belgilangan tamoyillarga asoslangan ravishda amalga oshiriladi.

Muhimlik: Kompaniya o‘zining MT qandayligini, shuningdek, uning qanday manfaatlari va MTning qaysi manfaatlari u uchun muhim ekanligini biladi.

To‘liqlik: Kompaniya doimiy o‘zaro hamkorlik qilish orqali MTlarning fikrlari, ehtiyojlari va xavotirlanishlarini, shuningdek, ular uchun muhim bo‘lgan masalalar bo‘yicha fikrlarini

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati

tushunadi.

Munosabat: Kompaniya MT va Kompaniya oldida turgan muhim masalalarga o‘z munosabatini bildiradi.

7 Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik asoslari

7.1 Kompaniya manfaatdor tomonlar bilan quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan holda samarali hamkorlik tizimini yaratishga intiladi: manfaatlarni hurmat qilish va o‘zaro manfaatli hamkorlik; Kompaniya faoliyatining barcha jihatlarini to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish; muntazamlik va izchillik; manfaatdor tomonlarning xohish-istaklarini aniqlash; ushbu majburiyatlarga rioya qilish; qaror qabul qilish jarayonida manfaatlar muvozanatiga rioya qilishga intilish; Kompaniya faoliyatining barcha asosiy sohalarida hamkorlik qilish.

7.2 Kompaniya manfaatdor tomonlarning fikrlarini hisobga olishga, doimiy aloqani qo‘llab-quvvatlashga, fikr-mulohazalarni so‘rash va taqdim etishga va asosiy manfaatdor tomonlar bilan ularga va Kompaniyaga tegishli bo‘lgan masalalar, shu jumladan barqaror rivojlanishni ta‘minlash, ekologiya, iqlim o‘zgarishi, ESG va boshqalar bo‘yicha vijdonan maslahatlashishga tayyorligini ko‘rsatadi.

7.3 Kompaniya shikoyatlar taqdim etilishi, ko‘rib chiqilishi va hal qilinishi uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etadi; korporativ darajada va Kompaniyaning ishlab chiqarish bo‘linmalari darajasida shikoyatlarni ko‘rib chiqish va hal qilishning adolatli, qulay va samarali mexanizmi ishlashini qo‘llab-quvvatlaydi.

7.4 Kompaniya yetkazib beruvchilardan Kompaniyaning etika tamoyillari qo‘llab-quvvatlanishini va ularning faoliyati O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya qilgan holda amalga oshirilishini kutadi. U faqat qonuniy faoliyat yuritadigan, korrupsiyani rad etadigan, inson huquqlarini hurmat qiladigan va xodimlarning mehnat xavfsizligini ta‘minlaydigan yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qiladi.

7.5 Kompaniyada davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi va qoidalari belgilangan bo‘lib, ular haqida har bir xodim xabardor bo‘lishi kerak, chunki muayyan o‘zaro munosabatlar, masalan, davlat tuzilmalari va muassasalariga xizmat ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

7.6 Xodimlar o‘z hamkasblariga, shuningdek, Kompaniyaning mijozlari va biznes-hamkorlarining barcha vakillariga, ularning yoshi, mehnat qobiliyati, jinsi, fuqaroligi, etnik kelib chiqishi, irqi yoki dini va Kompaniyaning biznes manfaatlariga ta‘sir qilmaydigan boshqa omillardan qat’i nazar, hurmat bilan munosabatda bo‘ladilar.

7.7 Kompaniya mahalliy hamjamiyat vakillari, shu jumladan notijorat tashkilotlari va operatsion faoliyat olib borilayotgan hududlar aholisi, shuningdek, investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgan hududlar bilan o‘zaro hamkorlikka e‘tibor beradi, bunday loyihalarni amalga oshirishda Kompaniya shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlarini nazarda tutadi. Ushbu hamkorlikka Kompaniya ijroiya apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalari o‘z faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha jalb etiladi.

8 Shikoyat va takliflarni berish mexanizmi hamda ularni ko‘rib chiqish tartibi

8.1 Kompaniya uchun barcha manfaatdor tomonlar tinglanishi muhim. Shaxsiy va jamoaviy murojaatlar va shikoyatlarni tez va samarali hal qilish uchun Kompaniyada xabar qoldirgan har qanday shaxsni javob choralari va ta‘qibdan himoya qilishni kafolatlaydigan quyidagi aloqa vositalari mavjud:

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati

8.1.1 Kompaniya rasmiy veb-saytining | Uztelecom.uz | [Aloqalar](#) bo‘limida Kompaniyaning yuridik va joylashgan manzili, telefon raqamlari va elektron pochta ko‘rsatilgan.

8.1.2 Murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-son Qonunida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8.1.3 Kompaniya rahbariyatining qarorlariga muvofiq murojaatlar va shikoyatlar berishning boshqa usullarini ham tashkil etish mumkin. Kompaniya uchun ushbu jarayon har qanday manfaatdor tomon uchun oson bo‘lishi muhim.

8.1.4 Kompaniyaning rasmiy veb-saytida Ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi haqida ma’lumotlar joylashtirilgan.

9 Monitoring va hisobot

9.1 Kompaniya ijobiy imijga erishishning samarali vositasi bo‘lgan - faoliyatning shaffofligi tamoyiliga amal qiladi.

9.2 Kompaniya aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha manfaatdor tomonlarga davriy hisobotlarni taqdim etadi. Hisobotlar rasmiy veb-saytda e‘lon qilinadi ([aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha hisobotlar](#)).

9.3 Ushbu chora-tadbirlar o‘zaro hamkorlikning qo‘llanilayotgan usullarining muvofiqligi va ishonchliligini, shuningdek, ularning qonunchilik talablariga va/yoki xalqaro standartlarga va/yoki Kompaniyaning ichki me‘yoriy hujjatlariga muvofiqligini baholash imkonini beradi.

9.4 Bundan tashqari, Kompaniya o‘zining yillik hisoboti yoki alohida nashr shaklida boshqa ommaviy hujjat tarkibida o‘z manfaatdor tomonlari uchun ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yillik hisobotni taqdim etadi.

10 Javobgarlik

10.1 Kompaniya rahbariyati ushbu Siyosatda bayon etilgan tamoyillar va maqsadlarni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi.

10.2 Kompaniya ushbu Siyosatni doimiy ravishda takomillashtirish zarur deb hisoblaydi va Kompaniyaning rivojlanish dinamikasiga muvofiq uning yangilanib borilishini nazarda tutadi.